Lipokinli nazariyada metabolik sindromning patogenezi aynan shu tarzda boʻladi. Adiposotlar qonga quyidag aktiv moddalar : leptin, adiponektin, FNO- α (kaxeksin), interleykin -1, 6, 8 plazminogen 1 tip aktivatori ingibitori, asilatsiya stimulyator oqsili, angiotenzin II, rezistin, adipsin, β oʻsish omili transformatsiya faktori (TFR- β), adipofilin, perilipinni ajratadi.

Leptin — asosiy immunoneyroendokrin regulyatorlaridan biri boʻlib, gipotalamus uchun toʻyinganlik signali boʻlib hisoblanadi. Koʻpchilik holatlarda semizlikda insonlar uchun leptinga markaziy rezistentlik boʻladi, uning periferik harakati saqlanib qoladi va hattoki giperpeptinemiyani hisobga olgan holda kuchayadi. Semizlikda qondagi leptinning konsentratsiyasi bilan insulin hamda glyukozaning

miqdori orasida bog'liqlik borligi oshkor bo'ldi, leptinning adipositlar retseptori bilan insulinning bog'lanishini buzishi mumkinligi aniqlandi. Giperleptinemiya insulinorezistentlik shakllanishiga hissa qo'shadi, u insulin m-RNK ekspressiyasini hamda insulin sekretsiyasini ingibirlaydi.

MS patogenezida insulinorezistentlik muhim rol o'ynaydi, bunda oshqozon osti bezi beta hujayralari insulin sekretsiyasini ko'paytiradi, buning natijasida giperinsulemiya rivojlanadi. Ortiqcha insulin ishlab chiqarish MNS faolligini oshiradi, vazokonstriksiyani va qon aylanishining daqiqali hajmini oshiradi, VLDL sintezini oshiradi, aterogen dislipidemiya va semizlikni keltirib chiqaradi. Patologik jarayonning dastlabki bosqichlarida insulinorezistentlik ta'sirida giperinsulinemiya neytrallanadi. Ammo, insulin ishlab chiqarishning ko'payishi bilan insulinorezistentlik darajasining yanada oshishi kuzatilmoqda. Ushbu jarayonlar natijasida glyukozaga tolerantlik buziladi va keyinchalik qandli diabet kasalligi rivojlanadi. [2]

MS bilan kasallangan odamlar orasida o'lim darajasi MS bilan kasallanmaganlarga qaraganda 20 yoki undan ko'p marta ko'pdir [75]. Adiponektinning ishlab chiqarilishi vitseral yog' lipositlariga bog'liq. TVI oshgunga qadar adiponektin konsentratsiyasining pasayishi kuzatiladi. Tajribalar shuni ko'rsatdiki, adiponektin insulinorezistentlikni kamaytirib, erkin yog' kislotalarini jigarga kiritilishini pasaytirib, ularning oksidlanishini stimullaydi, jigarda glyukoza ishlab chiqarilishini va TG, xolesterin, JPZLP sintezini pasaytirishga ham o'z hissasini qo'shadi. Mushak to'qimasida adiponektin xuddi leptin kabi erkin yog' kislotalarini oksidlanishini stimullab, mushak to'qimasini insulinga sezgirligini yaxshilaydi. Adiponektinning antiaterogen faoliyatiga qaramasdan, adiponektin konsentratsiyasi bilan YuIK rivojlanish xavfi orasida aniq bog'liqlik topilmagan. Shunday qilib, YuQTK xavfini prognozlashda adiponektindan foydalanish nomuvofiqdir.

Rivojlangan mamlakatlarda, 30 yoshdan oshgan odamlar orasida metabolik sindromning tarqalishi 10-30% ni tashkil qiladi. Metabolik sindromning tarqalishi to'g'risidagi ma'lumotlarning yuqori bo'lishi, birinchi navbatda, diagnostika

mezonlarining noaniqligi bilan bog'liq. Bir qator xalqaro tashkilotlar va turli xil dasturlar, masalan, JSST (1998), AQSh milliy xolesterol ta'limi dasturi (2001), Amerika Klinik Endokrinologlar Assotsiatsiyasi (2003) metabolik sindromning ta'rifini rasmiylashtirish uchun uning klinik mezonlari ishlab chiqilgan. Metabolik sindromning ta'riflaridagi farqlarga qaramay, abdominal semizlik, arterial gipertenziya, gipertrigliseridemiya, gipoalfaxolesterolemiya, insulinrezistentlik va uglevodlar almashinuvining buzilishi eng barqaror mezonlar hisoblanadi. Bugungi kunga kelib alkogolsiz yog'li jigar kasalligi, tuxumdon polikistoz sindromi va boshqalar metabolik sindromi tarkibiga qo'shilishi [33].

1.3. Giperglikemiyaning tushunchasi va zamonaviy tasnifi

Giperglikemiya soʻzma soʻz tarjima qilinganda “qonda qand miqdorining oshishi” degan maʼnoni anglatadi va u bilan uning soʻrilishi, sintezi hamda utilizatsiyasi orasidagi aloqaning buzilish boʻlib hisoblanadi.

Endokrinologik amaliyotda uglevod almashinuvining buzilishi bilan aloqador kasallik boʻlib qandli diabet hisoblanadi. Koʻpchilik bemorlar endokrinologga toʻgʻridan toʻgʻri yoki terapevt orqali quyidagi shikoyatlar bilan murojaat etishadi: ogʻiz qurishi, ovqatdan keyin chanqash, xolsizlik, yurak urishi, teri qichishi kabilarning qondagi va hato siydikdagi qand miqdoridagi keskin ogʻishi bilan kombinatsiyalangan holda kelishi bilan xarakterlanadi. (uglevod almashinuvining dekompensatsiya markeri). 70% oʻz vaqtida birinchi marta murojaat etgan bemorlar qandli siabetning oʻrta bosqichida boʻlishadi. 1985 yildan hozirgi kungacha butun dunyoda qandli diabet bilan ogʻrigan bemorlar soni 6 martaga oshdi hamda 177 mlnni tashkil etadi. Agar shu suratda davom etsa, 2025 yilda bemorlar soni 300 mlndan ortiq yetishi mumkin, (yer sharidagi 5% atrofidagi aholi), mutloq koʻpchilikni (90%) qandli diabet 2 tip tahskil etadi.

NGB (nahorgi glikemiyaning buzilishi) va GTB (glyukozaga tolerantlikning buzilishi) oʻzida erta uglevod almashinuvining buzilishini saqlaydi, bunda glyukozaning toʻqimalarga utilizatsiyasi pasayib, klinik belgilar namoyon boʻlmasdan faqatgina peroral glyukozaga tolerantlik testini (PGTT) oʻtkazish

orqali aniqlanadi. NGB va GTB qondagi qand miqdorini ko'rsatib, normal ko'rsatkichning oshishi bo'lib, diabetik darajaga yetmagan holat hisoblanadi.

Uglevod almashinuvining buzilishini aniqlaydigan traditsion diagnostika bu plazmadagi glukoza miqdorini nahorda aniqlash yoki PGTT natijalariga qarab belgilash hisoblanadi (3-jadval). Absolyut zarur talab glikemiyani laborator uskunalar yordamida tekshirish bo'lib hisoblanadi.

3-jadval

Uglevod metabolizmining buzilishi va qandli diabetning diagnostik mezonlari (JSST, 1999-2006)

	Qondagi qand miqdori, mmol/l	
	kapillyar qon	Benoz plazma
Norma		
Nahorgi va 2 soatdan keyin PGTT	< 5,6	< 6,1
	< 7,8	< 7,8
<i>Qandli diabet</i>		
Nahorgi yoki	$\geq 6,1$	$\geq 7,0$
va 2 soatdan keyin PGTT yoki	$\geq 11,1$	$\geq 11,1$
Tasodifiy glikemiya	$\geq 11,1$	$\geq 11,1$
Glyukozaga tolerantlikning buzilishi (GTB)		
Nahorgi va 2 soatdan keyin PGTT	< 6,1	< 7,0
	$\geq 7,8$ < 11,1	$\geq 7,8$ < 11,1
Nahorgi glyukozaning buzilishi (NGB)		
Nahorgi va 2 soatdan keyin PGTT)	$\geq 5,6$ < 6,1	$\geq 6,1$ < 7,0
	< 7,8	< 7,8

Glyukometrlardan nafaqat qandli diabet va boshqa buzilishlarni aniqlashda, balki qandli diabet bilan og'riqan bemorlarda o'z-o'zini nazorat qilishda ham foydalaniladi. Glikolizni va glikemiyani aniqlashdagi xato natijalarni oldini olish

maqsadida qon olingan zahoti tekshirilishi yoki darhol sentrifugalanib yoki 0-4°C haroratda saqlanishi yoki konservantli probirkaga (natriy flyuorid) olinishi kerak.

Ertalabki glikemiya uchun tungi ochlik 8 soat kam bo'lmagan , ammo 14 soat oshmagan holatda, faqatgina suv ichish mumkin, bo'lmog'i darkor. Tasodifiybglikemiya esa bu oxirgi ovqat iste'molidan qat'iy nazar glyukozaning kunning xoxlagan paytidagi miqdori .

Standart PGTT – bu bu glyukozani nahorda aniqlash va 75 g (yoki 82,5g glyukoza monogidrat) suvsiz glyukozani 250-300ml suvga eritib iste'mol qilgandan 2 soat o'tgandan so'ng yana qayta tekshirish usuli. Test 3-kundan kam bo'lmagan erkin ,dietasiz ovqatlanish fonida yetarlicha uglevod saqlagan (150 g/kunlik), test o'tkazilishi aniq bo'lgan oxirgi kechada 30-50 g uglevod saqlagan ovqatni tashkil etishi kerak. Test o'tkazish vaqtida chekish va fizik harakat man etiladi. PGTT o'tkir kasalliklar fonida va boshqa omillar , qaysiki glikemiya darajasini oshiruvchi (masalan, glyukokortikoidlar, tireoid gormonlar, tiazid diuretiklar , betta-adrenoblokatorlarni qisqa muddatli qabul qilinganda) o'tkazilmaydi.

2-tip qandli diabet - bu jamoat sog'lig'ining asosiy muammosi. Kasallik nogironlikka olib keladigan jiddiy asoratlarning rivojlanishi bilan birga kechadi va o'rtacha umr ko'rish davomiyligi pasayadi. Qandli diabet bilan og'rigan bemorlar yurak-qon tomir kasalliklaridan vafot etishdan ko'ra ikki baravar ko'proq, pastki ekstremitalarning periferik makrovaskulyar kasalliklar bo'yicha amputatsiya qilish ehtimoli 17 baravar ko'p uchraydi. Tashxis tasdiqlangan 2-tip qandli diabet bilan og'rigan bemorlarning 25 foizida retinopatiya kuzatiladi. 20 yildan beri qandli diabet bilan kasallanganlar orasida bemorlarning 40 foizida nefropatiya rivojlanadi. Ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda qandli diabet kasalligi o'lim ko'rsatkichi bo'yicha uchinchi o'rinda turadi. 2-tip qandli diabet bilan kasallangan bemorlar miyokard infarkti bo'lganlar kabi erta o'lim xavfiga ega.

Ushbu ayanchli holatlar nafaqat davolanishni optimallashtirishni, balki o'z vaqtida tashxis qo'yish va profilaktika qilishni, ayniqsa, 2-tip qandli diabetning

yangi holatlari rivojlanishining oldini olishni taqozo etadi. Dunyoning aksariyat mamlakatlarida 2-tip qandli diabet bilan bog'liq ko'plab masalalarni hal qilish davlat vazifalari darajasiga qo'yilgan. Amerikaliklar uchun bu muammo yiliga 100 milliard dollardan, Germaniya uchun esa 40 milliard dollardan oshadi.

O'zbekistonda qandli diabet va GTB epidemiologiyasini o'rganish bo'yicha bir qator tadqiqotlar o'tkazildi.

Ushbu tadqiqotlarga ko'ra, respublika aholisi orasida diabet va GTB tarqalishi ancha yuqori. Umuman olganda, respublikaning turli mintaqalarida diabetning tarqalishi 1,9% ni, GTB esa 4% ni tashkil qildi. Shuni ta'kidlash kerakki, shahar aholisi orasida diabetning tarqalishi sezilarli darajada yuqori (3,9%).

Toshkentda 16 356 diabetli bemor ro'yxatga olingan bo'lib, shundan 1-tip qandli diabet 7,5% va 2-tip qandli diabet bilan 92,5% tashkil etadi. 1-tip qandli diabet bilan kasallanishning jinsiy bo'yicha tarqalish bir xil darajada bo'lib, 2-tip qandli diabet bilan kasallangan ayollar 70,6% ni tashkil qiladi.

Ikkita turdagi diabet mavjud, ularning muqobil nomi ularning asosiy farqini tavsiflaydi: 1-tip- insulinga bog'liq va 2-tip - insulinga bog'liq bo'lmagan. 2-tip diabetning kech bosqichlarida dori terapiyasining samarasizligi bilan bemorlarga insulin terapiyasi buyuriladi; bu holda tashxisda qo'shimcha ko'rsatma paydo bo'ladi. Ba'zi klinik belgilarning o'ziga xosligiga qaramay, ular boshqa senariy bo'yicha rivojlanadi. 1-tip diabetning sababi (QD-1) insulin sintezining keskin pasayishi bilan bog'liq bo'lgan oshqozon osti bezi β -hujayralariga katta zarar etkazishdir. QD-2 bir necha mexanizmlar - insulinorezistentlik (IR), jigarda glyukoza sintezining ko'payishi va oshqozon osti bezi β hujayralarida insulin sintezi etishmovchiligining sekin rivojlanishi bilan bosqichma-bosqich rivojlanadi. 2-Qandli diabet 40 yoshdan so'ng rivojlanib u qandli diabet bilan og'rikan bemorlarning 80-90 foizini tashkil etadi. [1] O'tgan asrning 90-yillarida Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ekspertlari yangi "prediabet" (PD) atamasidan foydalanishni taklif qilishdi, bu kasallik ikki turni: yuqori tezlikda glyukoza (VGN) va glyukozaga tolerantlikning buzilishi (GTB) birlashtiradi [54]. Aslida, bu

o'zgarishlar QD-2 ning preklinik bosqichiga xosdir va 75 g glyukoza yordamida va glyukozaga tolerantlikning buzilishi (TSH) natijalari asosida tashxis qilinadi.

Mamlakatimizda QD tarqalishi 2007 yilda 0.52% (QD1- 0,06% va QD2 – 0,47%), 2010 yilda – 0,62% (QD1 – 0,07% va QD2 – 0,55%), 1 yilda QD bemorlar ulushini - 5,98% o`lishi (QD1 – 6,5% va QD2 – 5,91%) kuzatildi. 2016 yilda aholininng 0,87% QD qayd etildi (QD1 – 0,07% va QD2 –0,8%). QDMP bo`yisha QD va GTB tarqalganligini kamayishi bilan bir qator kata yoshli aholi o`rtasida QD1 taralishining yuqoriligi ko`rsatildi.

II-BOB. MATERIAL VA TADQIQOT USULLARI.

2.1.Tadqiqot ob'ekti: Ilmiy ishlar Buxoro shahridagi kardiologiya va endokrinologiya dispanerida olib borildi. Tasodifiy namunaga ko'ra, tadqiqotga n=130 o'rta va qari yoshidagi (40-79 yoshli) ayol va erkaklar kiritilgan.

2.2. Tibbiy ko'rik:

So'rov quyidagi usullarni o'z ichiga oldi: Savolnoma, Findrisk shkalasi, antropometrik tekshiruv, biokimyoviy tahlil va instrumental tekshiruvlar.

Bemorlarni tanlab olish mezonlari.

O'rta va qari yoshidagi 130ta ayol va erkaklar quyidagi mezonlar asosida tanlab olindi:

- 40 yoshdan yuqori
- OTV (ortiqcha tana vazn)
- Gipodinamiyaga moyil
- Noto'g'ri ovqatlanish tartibi

Bemorlarni tanlab olishga qarshi ko'rsatma mezonlari.

- 79 yoshdan yuqori
- Oshqozon va o'n ikki barmoqli ichak yara kasalligi
- Boshqa endokrin kasalliklar (Itsenko- Kushing kasalligi, gipoterioz)
- Steroid dori vositasida rivojlanadigan kasalliklar (Itsenko- Kushing sindromi, steroidli qandli diabet)
- O'tkir infeksiyon va noinfeksiyon kasalliklar
- Oshqozon osti bezi rezeksiyasidan keying holatlar.

Instrumental usullar:

EKG maxsus xonada kushetka, elektr tarmog'i uzatkichlaridan 2 metr masofada bo'lishi kerak. Tekshiruv 10-15 minut dam olgandan so'ng shuningdek ovqatlanigandan keyin 2 soat o'tib o'tkaziladi. EKG - 6-NEK elektrokardiyografida 12 ta umumiy o'qda qayd etildi. Lentada 25 mm / sek tezligida, 1210 standart kuchlanishli avtokardiner 4101 U elektrokardiografi (Yaponiya) yordamida yozib olindi. EKGni keyingi baholash standart mezonlar bo'yicha o'tkazildi.

Qon bosimi (QB)- baholashda kamida 2 minut oraliqda olingan 2 o'lchovning o'rtacha qiymatlari hisobga olingan. JSSTning Gipertenziya bo'yicha so'nggi tasnifiga ko'ra (JSST, 1999), quyidagi toifalar ajratilgan (mmHg da):

4-jadval

TMI	Tanna vazni va bo'y uzunligi o'rtasidagi mutanosiblik
-----	---

Gipertoniya darajalari

Q/B darajalari	Qon bosimi ko'rsatkichlari
optimal qon bosimi	SQB- <120; DQB <80
normal qon bosimi	SQB <130; DQB <85
yuqori normal qon bosimi	SQB 130-139; DQB 85-89
1-darajali gipertenziya	SQB 140-159; DQB 90-99
2-darajali gipertenziya	SQB 160-179; DQB 100-109
3- darajali gipertenziya	SQB >180; DQB >110

Tana massasi indeksi – insonning bo'yi va vazni mosligi darajasini baholashga imkon beruvchi kattalik bo'lib, u vazn yetishmasligi me'yordaligi, yoki ortiqchaligi aniqlashda ishlatiladi. Tana massasi indeksi ko'rsatkichi Belgiyalik sotsiolog va statistic Adolf Kettle tomonidan ishlab chiqilgan. U kg/m^2 da hisoblanadi. JSST tavsiya etgan TMI ko'rsatkichi interpretatsiyasi kishining jinsi va yoshini hisobga olmaydi. Ko'pchilik mamlakatlar statistikasi erkaklarda TMI ayollarnikiga nisbatan biroz ko'proq bo'lishi aniqlangan. Bundan tashqari TMI o'rta yoshlilarda qariyalar va yoshlarnikiga nisbatan yuqoriroq.

< 16,5	Tana vaznining sezilarli tanqisligi
16,5- 18,5	Tana vazn yetishmovchiligi
18,5-24,5	Me'yor
25-29,9	Ortiqcha tana vazni
30-34,5	Semizlik I daraja
35-39,9	Semizlik II daraja
>40	Semizlik III daraja
< 16,5	Tana vaznining sezilarli tanqisligi
16,5- 18,5	Tana vazn yetishmovchiligi
18,5-24,5	Me'yor
25-29,9	Ortiqcha tana vazni
30-34,5	Semizlik I daraja
35-39,9	Semizlik II daraja
>40	Semizlik III daraja

Labarator-instrumental tekshiruvlar

Bioximiyaviy tekshiruv maqsadida qon ertalab tirsak venasidan 12 soatlik ochlikdan so'ng olinadi. Olingan qon laboratoriyaga 2 soatdan kechiktirimasdan konteynerda olib boriladi. XS miqdori fermentativ kalorimetrik usul yordamida «Vektor-Best» firmasi nomi ostidagi reaktivlar bilan aniqlanadi, bu ko'rsatkichlarni avtomatik bioximik analizator MINDRAYBA-88A aniqlanadi, OSIYOMEDICA (O'zbekiston) firmasida ishlab chiqilgan. Tekshiruvlar Buxoro viloyat Endokrinologiya va Kardiologiya dispanserlarida o'tkazildi..

5-jadval

Semizlik mezonlari

Biokimyoviy tadqiqotlar:

Biokimyoviy tadqiqotlar uchun qon ertalab 12 soatlik ochlikdan so'ng radial venadan olindi. Material laboratoriyaga konteynerlarda yig'ilgan paytdan boshlab 2

soatdan kechiktirmay etkazib berildi. Xolesterin tarkibi "Vector-Best" kompaniyasining reaktivlari to'plamidan foydalanib, oxirgi nuqtada enzimatik kolorimetrik usul bilan aniqlandi, ushbu ko'rsatkichlarni aniqlash MINDRAYBA-88A, OSIYOMEDICA (O'zbekiston) avtomatik biokimyoviy analizatorida o'tkazildi. Tadqiqot Buxoro Kardiologiya va Endokrinologiya dispanserlarining laboratoriyasida o'tkazilgan.

Hospiteks analizatorida venoz qonda lipid miqdori aniqlangan. Biz xolesterin (XC) va triglitseridlar (TG) darajasini o'rgandik. Giperxolesterolemiya (GC) uchun xolesterol miqdori $> 6,1$ mmol / L, gipertrigliseridemiya (GTG) uchun TG darajasi $1,7$ mmol/L ni tashkil qildi. YuZLP xolesterol va PZLP xolesterol

6-Jadval

Ko'rsatkichlar	Norma
Xolesterin, mmol/l	3,1-5,2
Triglitsid, mmol/l	0,15-1,71
YuZLP, mmol/l	0,9-1,9
PZLP, mmol/l	> 3.0

Glyukozaga tolerantlik quyidagilar asosida baholandi.

Glikolizni va glikemiyaning aniqlashdagi xato natijalarni oldini olish maqsadida qon olingan zahoti tekshirilishi yoki darhol sentrifugalanib yoki $0-4^{\circ}\text{C}$ haroratda saqlanishi yoki konservantli probirkaga (natriy flyuorid) olinishi kerak.

Ertalabki glikemiya uchun tungi ochlik 8 soat kam bo'lmagan, ammo 14 soat oshmagan holatda, faqatgina suv ichish mumkin, bo'lmog'i darkor

Tasodifiybglikemiya esa bu oxirgi ovqat iste'molidan qat'iy nazar glyukozaning kunning xoxlagan paytidagi miqdori .

Standart PGTT – bu bu glyukozani nahorda aniqlash va 75 g (yoki 82,5g glyukoza monogidrat) suvsiz glyukozani 250-300ml suvga eritib iste'mol qilgandan 2 soat o'tgandan so'ng yana qayta tekshirish usuli. Test 3-kundan kam bo'lmagan erkin ,dietasiz ovqatlanish fonida yetarlicha uglevod saqlagan (150 g/kunlik), test o'tkazilishi aniq bo'lgan oxirgi kechada 30-50 g uglevod saqlagan ovqatni tashkil etishi kerak. Test o'tkazish vaqtida chekish va fizik harakat man etiladi. PGTT o'tkir kasalliklar fonida va boshqa omillar , qaysiki glikemiya darajasini oshiruvchi (masalan, glyukokortikoidlar, tireoid gormonlar, tiazid diuretiklar, betta-adrenoblokatorlarni qisqa muddatli qabul qilinganda) o'tkazilmaydi.

Ushbu tavsiyalarga muvofiq ma'lumotlarni baholash quyidagi mezonlarga muvofiq amalga oshirildi (mg% da):

Normada glyukozaga tolerantlik: nahorgi glikemiya <100, glyukoza tushgandan 1 soat keyin <160 va 2 soat keyin <100;

Glyukozaga tolerantlikning buzilishi : nahorgi glikemiya <100; Glyukoza yuklangandan 1 soat keyin> 160 va / yoki 2 soat keyin > 100;

Qandli diabet: nahorgi glikemiya> 100, glyukoza tushgandan 1 soat keyin> 180 va 2 soat keyin > 130.

Shu bilan birga, JSSTning hozirgi tavsiyalari (JSST, 1996) ko'ra glyukozaga tolerantlikning buzilishi nahorgi glikemiya normal bo'lgan holatda (<100 mg%) glyukoza yuklangandan 2 soatdan keyingi ≥ 140 mg% glikemiya holatlari qabul qilinadi.

2.3.Standart so'rov

Standart so'rov maxsus ichki kasalliklar kafedراسi xodimlari va shu tekshiruvda uchun teletibbiyotlar tomonidan ishlab chiqilgan . Anketa o'z ichiga : pasport ma'lumotlari, antropometrik ma'lumotlar, chekish statusi, alkogol iste'moli, YuQTKga va qandli diabetga irsiy moyilligi , ovqatlanish, psixologik statusi, asosiy organ va sistemalar holati anamnezi bo'yicha o'tkazilgan kasalliklari va

operatsiyalari, surunkali kasalliklarning borligi, ayollar uchun klimakterik statusning borligi, bioximik ko'rsatkichlar, tinch holatda EKG o'tkazish kabilarni oladi.

So'rovnoma

1	F.I.O.	
2	Ambulator kartasi yoki kasallik varaqasi raqami	
3	Manzili	
4	Jinsi	
5	Tug'ilgan yili	
6	Kasbi	
7	Konstitutsiyasi	
8	Boshidan o'tkazgan kasalliklari	
9	Hozirgi vaqtdagi kasalliklari	
10	Tana vazni (kg)	
11	Bo'yi (sm)	
12	IMT Ketli indeksi	
13	Qorin aylanasi	
14	Son aylanasi	
15	Brok indeksi	
16	Qon bosim, puls.	
17	Qon bosimini tushiruvchi qabul qilinadigan biror xil preparatlar nomi	
18	Sizda bosh aylanishi va quloqlarda shovqin bo'ladimi ?	
19	Nima deb o'ylaysiz, sizningcha tana vazningiz normadani ?	

20	Tana vazningiz o'zgardimi ?	
21	Necha kilogrammga va qancha vaqtda ?	
22	Semirishga qarshi biror preparat qabul qilasizmi ?	
Qandli diabet so'rovnomasi		
23	Sizda qandli diabet bor deb o'ylaysizmi ?	
24	Qandli diabetga qarshi biror bir preparat qabul qilasizmi ?	
25	Preparat nomi	
26	Parhez tutasizmi ?	
27	Sizda og'iz qurishi kuzatiladimi ?	
28	Bu ovqatlanishingiz bilan bog'liqmi ?	
29	Sizda och qorinda bosh aylanishi va umumiy holsizlik kuzatiladimi ?	
30	Sizda chanqoqlik kuzatiladimi ?	
31	1 sutkada qancha suyuqlik iste'mol qilasiz ? (litr)	
32	Ishtahangiz yaxshimi ?	
33	Sizda teri qichishi kuzatiladimi ?	
34	Sizda furunkul yoki terining yiringli kasalliklari kuzatiladimi ?	
35	Oyoq-qo'llaringizda uvishish, sovuq qotishi va karaxtlik bormi ?	
36	Ko'rish o'tkirligingiz pasaydimi ?	
37	Ko'rishingizning pasayishi optik linzalar yordamida korrektsiya qilinadimi ?	
38	Yuqoridagi belgilarni qachon sezishni boshladingiz	
39	Zararli odatlari	

Findrisk shkalasi		
40	Yosh 45--- 0ball 45-54 2 ball 55-64 3 ball 64--- 4 ball	
41	IMT kg\m2 25 ---0 ball 25-30----1 ball 30---3 ball	
42	Bel aylanasi er < 94 ayol <80 0 ball er 94-102 ayol 80-88 3 ball er >102 ayol >>88 4 ball	
43	Har kuni 30 daqiqa fizik harakatlar bajarasizmi? Ha—0 ball yo’q ---2 ball	
44	Ovqat ratsioningizda meva va sabzavotlar bormi? Har kun –0 ball har kun emas—2 ball	
45	Antigipertenziv preparatlar qabul qilasizmi? Yo’q –0 ball ha--- 2 ball	
46	Qondagi qand miqdorini aniqlaganmisiz? Yo’q ---0 ball ha --- 2 ball	
47	Oila a`zolaringizda va yaqin qarindoshlaringizda qandli diabet kasalligi	

	bormi? Yo'q – 0 ball ha—buvi, bobo, amma, tog'a, xola----3 ball ha --- ota, ona, aka, singil ---- 5 ball	
	Nasliy anamnez	
48	Irsiy anamnez	
49	Yaqin qarindoshlarida semizlik bo'lganmi ?	
50	Yaqin qarindoshlari AG bilan kasallanganmi ?	
Obyektiv belgilar		
51	Teri va shilliq qavatlarining rangi	
52	Terining quruqligi	
53	Tirnoqlarning sinuvchanligi	
54	Og'iz burchaklarida yorilishlarning borligi	
55	Sizda hayz tsikli normal kechadimi ?	
56	Anemiyaga qarshi davo muolajalari olganmisiz ?	
	Ovqat hazm qilish sistemasi	
57	Qorin da'm bo'lishi kuzatiladimi?	
58	Ko'ngil aynish va qayt qilish holatlari bo'ladimi?	
59	Sizda quyidagi holatlardan qaysi biri kuzatiladi? Zarda qaynashi---1 kekirish --2 hiqichoq---3 qorin quldirashi---4 so'lak ko'p ajralishi---5 og'irlik hissi--- 6 og'iz aachchiq bo'lishi---7	
60	Ich o'tishi qanday? Regulyar---1 qabziyat---2 kun ora o'tadi---3	

	suyuq---4	
61	Sizda quyidagi kasalliklardan qaysi biri tashxis qo'yilgan? Gastrit---1 yara kasalligi----2 xolisistit---3 pankreatit---4 kolit---5 enterit---6 gepatit---7 bavosil---8	
62	Har yili shu kasallik tufayli shifokorga murojat qilasizmi? Ha---1 yo'q---2	
Instrumental va laborator tahlillar		
63	Umumiy qon tahlili	HB Erit. Leyk. ECHT QIV
64	Umumiy siydik tahlili	Rangi Zichligi Miqdori Oqsil
65	Qon biokimyoviv tahlili	ALT AST Xoletserin Triglitsid YuZLP PZLP Qand Mochevina Kreatinin
66	Mikroelementlar	Na Mg

		K	Ca
67	UZI		
68	EKG		
69	Diagnoz		
70			

2.4. Ma'lumotlarni statistik qayta ishlash.

Statistik ishlanma 2 etapni o'z ichiga oladi :

- Statistik tahlilga tayyorgarlik ;
- 2) xususiy statistik tahlil .

Statistik tahlil tarkibiga tahlil qilinadigan o'zgaruvchilar turlarini (buxgalteriya xususiyatlari), har bir xususiyatni taqsimlash turini va muammoning bayonini o'rganish kiritilgan . Ikkinchi bosqichda birinchi bosqichda o'rganilgan uchta asosiy omilga bog'liq ravishda ma'lum statistik usul tanlandi.

- tahlil qilingan xususiyatlarni taqsimlash xarakteri;
- o'rganilayotgan namunalarning soni va turi (bog'liq yoki mustaqil).

Belgilarni taqsimlash turini tahlil qilish Microsoft Excel dasturi yordamida amalga oshirildi. Oddiy taqsimlash mezonlari quyidagi parametrlar edi:

- o'rtacha qiymat, holat va medianning mediani taxminan tengdir;
- 68% atrofidagi belgilar qiymati $M \pm \sigma$ intervalida joylashadi , 95% izi $M \pm 2\sigma$ intervalida, 99% izi $M \pm 3\sigma$ intervaloda joylashadi.
- Belgining normal taqsimlanishi uning qiymatiga nisbatan nosimmetrikdir.

Tahlil qilingan miqdoriy ko'rsatkichlarning 80% dan ortig'i an'anaviy ravishda taqsimlanganligi sababli, statistik tahlil uchun asos sifatida parametrik statistika usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqot davomida olingan ma'lumotlar Pentium-IV shaxsiy kompyuterida Microsoft Office Excel-2012 dasturiy ta'minot to'plamidan foydalangan holda statistik ishlov berishga, shu jumladan o'rnatilgan statistik ishlov berish funktsiyalaridan foydalanishga asoslangan. O'rganilgan ko'rsatkichning arifmetik o'rtacha qiymati (M), standart og'ish (σ), o'rtacha (xato) ning o'rtacha xatosi(m), nisbiy qiymatlar (chastota,%) Q, o'rtacha qiymatlarni taqqoslashda olingan o'lchovlarning statistik ahamiyati mezon bilan aniqlandi, parametratsion va parametrik bo'lmagan statistika usullaridan foydalandik. Talaba (t) taqsimot me'yorini (ortiqcha o'lchov bo'yicha) va umumiy tafovutlarning tengligini (F - Fisher sinovi) tekshirishda xato ehtimolini (P) hisoblash bilan. Statistik ahamiyatli o'zgarishlar uchun $P < 0.05$ ishonch darajasi qabul qilindi. Sifatli qiymatlarning statistik ahamiyati uchun χ^2 kriteriysi (xi-kvadrat) va z-kriteriysi (Glans, 1998) yordamida quyidagi formula ishlab chiqilgan:

$$z = (p_1 - p_2) \sqrt{\frac{n_1 \cdot n_2}{p(1-p) \cdot (n_1 + n_2)}}$$

qayerda $p_1 = \mu_1/n_1$ va $p_2 = \mu_2/n_2$ Taqqoslanadigan sinov chastotalari $ap = (\mu_1 + \mu_2)/(n_1 + n_2)$ ikkala guruhda ham o'rtacha belgilarning namoyon bo'lish chastotasi.

III bob. TADQIQOTNING NATIJALARI VA MAZMUNI.

3.1. Ortiqcha tana vazni va semizlikda uglevod almashinuvi buzilishi uchrashini o`rganish.

Qandli diabet kasallikni erta aniqlash va profilaktik targ'ibot tashfiqot ishlarini amalga oshirish va ishlab chiqilgan dastur asosida xavf omillarini erta bartaraf etishga qaratilgan amaliy qo'llanmalar tavsiya etildi.

Biz bu dastur asosida o'rta va qari yoshdagi ayol va erkaklarda kasallik tarqalish darajasi o'rganildi. Bu dastur asosida biz TMI (tana massa indeksi), semizlik, GTB (glyukozaga tolerantlikning buzilishi), glikemik egrilik, qandli diabet, dislipidemiya, YuIK (yurak ishemik kasalligi), mikroelementlarning buzilish holatlari aniqlandi.


Ilmiy ishlar Buxoro shahridagi kardiologiya va endokrinologiya dispanerida olib borildi. Tasodifiy namunaga ko'ra, tadqiqotda jami n=130 o'rta, qari va keksa yoshdagi (40-79 yoshli) 17,5% (n=63) ayollar va 51,5% (n=67) erkaklar kiritilgan.

Jadval 3.1.1.

O'RTA VA QARI YOSHDAGI AYOL VA ERKAKLARNING UCHRASH CHASTOTASI.

Yosh	Ayol n=63	Erkak n=67	Jami n=130
40-49 yosh	7 (11,7 %)	13 (18,6 %)	20 (15,4 %)
50-59 yosh	14 (23,3 %)	23 (32,9 %)	37 (28,5 %)
60-69 yosh	31 (51,7%)	23 (32,9%)	54 (41,5 %)
70-79 yosh	11 (17,5%)	8 (11,9%)	19 (14,6 %)
Jami	63 (48,5%)	67 (51,5%)	130 (100%)

Diagramma 3.1.



Olingan ma'lumotlarga ko'ra, ambulator va stasionar terapevtik yordam uchun murojaat qilgan ayol va erkaklar yoshiga qarab, guruhlariga ajratildi. Tadqiqot natijalariga qarab aniqlangan xatoliklar o'rganildi.

Tasodifiy tekshiruvlarga ko'ra, bemorlar yosh va jins bo'yicha guruhlariga ajratildi. Jami 4 guruhdagi o'rta, qari va keksa yoshidagi ayollar 46% (n=60) kishini tashkil etdi. Jami 4 guruhdagi o'rta, qari va keksa yoshidagi ayollar 54% (n=70) kishini tashkil etdi.

Bunga binoan: Birinchi guruhga 40-49 yoshli ayollar 11,7% (n=7) ni, 50-59 yoshli ayollar 23,3% (n=14) ni, 60-69 yoshli ayollar 51,7% (n=31) ni, 70-79 yoshdagi ayollar 17,5% (n=11) ni tashkil etdi.

Ikkinchi guruhda 40-49 yoshli erkaklar esa 18,6% (n=13) ni, 50-59 yoshli erkaklar esa 32,9% (n=23) ni, 60-69 yoshli erkaklar 32,9% (n=23) ni, 70-79 yoshdagi erkaklar 11,9% (n=8) ni o'z ichiga qamrab oldi.

**GLYUKOZAGA TOLERANTLIKNING BUZILISHI VA QANDLI
DIABETNING AHOLI O`RTASIDA UCHRASHI.**

Jins	Yosh	Normo-likemiya		GTB		Oldindan aniqlangan QD		Birinchi marta aniqlangan QD		Jami
		N	%	N	%	n	%	N	%	N
Ayollar	40-49 yosh	3	42.8	3	42.8	-	-	1	14.3	7
	50-59 yosh	6	42.8	5	35.7	2	14,3	1	7,1	14
	60-69 yosh	18	58	-	-	12	38.7	1	3.2	31
	70-79 yosh	7	63.6	-	-	4	36,4	-	-	11
Jami ayollar		34	54	8	12.7	18	28.6	3	8	63
Erkaklar	40-49 yosh	5	38.5	5	38.5	-	-	3	23	13
	50-59 yosh	16	69.6	4	17.4	2	8.7	1	4.3	23
	60-69 yosh	13	56.5	2	8,7	4	17,4	4	17.4	23
	70-79 yosh	4	50	-	-	3	37.5	1	12.5	8
Jami erkaklar		38	56.7	11	16,4	9	13.4	9	13.4	67

Glyukozaga tolerantlikning buzilishi va qandli diabetni uchrash chastotasi o`rta, qari va keksa yoshdagi aholi o`rtasida o`rganildi. Olib borgan tadqiqot natijalarini taxlil qilish uchun yosh va jins bo'yicha guruhlariga ajratildi. Bunga binoan 40-49 o`rta yoshli ayollar guruhida jami 7 kishi bo'lib, shundan qondagi qand miqdori normal bo'lganlari 42,8 % (n=3), glyukozaga tolerantlikning buzilishi 42,8% (n=3) da, oldindan aniqlangan qandli diabet 42,8 % (n=3) tekshiruvchilarda aniqlandi.

50-59 o`rta yoshli ayollar guruhida jami 14 kishi bo'lib, shundan qondagi qand miqdori normal bo'lganlari 42,8 % (n=6), glyukozaga tolerantlikning buzilishi

35,7% (n=5) da, oldindan aniqlangan qandli diabet 14,3 % (n=2) , ilk bor aniqlangan qandli diabet esa 7,1% (n=1) ni tashkil etdi.

60-69 qari yoshli ayollar guruhida jami 31 kishi bo'lib, shundan qondagi qand miqdori normal bo'lganlari 58.% (n=18), oldindan aniqlangan qandli diabet 38,7% (n=12) va ilk bor aniqlangan qandli diabet 3,2% (n=1) aniqlandi.

70-79 keksa yoshli ayollar guruhida jami 11 kishi bo'lib, shundan qondagi qand miqdori normal bo'lganlari 63,6% (n=7) , oldindan aniqlangan qandli diabet 12,9% (n=4) ni o'z ichiga qamrab oldi. Jami tekshirilgan ayollar soni n= 63 kishini tashkil etdi.

Natijalarga ko'ra 40-49 o'rta yoshli erkaklar guruhida jami 13 kishi bo'lib, shundan qondagi qand miqdori normal bo'lganlari 38,5 % (n=5), glyukozaga tolerantlikning buzilishi 38,5% (n=5) da va ilk bor aniqlangan qandli diabet esa 23% (n=3)ni tashkl etdi.

50-59 o'rta yoshli erkaklar guruhida jami 23 kishi bo'lib, shundan qondagi qand miqdori normal 69,6% (n=16) , glyukozaga tolerantlik buzilishi 17,4% (n=4), oldindan aniqlangan qandli diabet 8,7% (n=2) va ilk bor aniqlangan qandli diabet 4.3% (n=1)da aniqlandi.

60-69 qari yoshli erkaklar guruhida jami 23 kishi bo'lib, shundan qondagi qand miqdori normal bo'lganlari 56,5% (n=13), glyukozaga tolerantlikning buzilishi 8.7% (n=2) da, oldindan aniqlangan qandli diabet 17.4% (n=4) va ilk bor aniqlangan qandli diabet 17,4% (n=4) aniqlandi.

70-79 keksa yoshli erkaklar guruhida jami 8 kishi bo'lib, shundan qondagi qand miqdori normal bo'lganlari 50% (n=4), oldindan aniqlangan qandli diabet 37.5% (n=3)da va hamda ilk bor aniqlangan qandli diabet 12,5% (n=1). Jami tekshirilgan erkaklar soni n= 67 kishini tashkil etdi.

Diagramma 3.2.

**GTB ning AYOLLAR O'RTASIDA TARQALISH
KO`RSATKICHI.**





Diagramma 3.3.

**GTB ning ERKAKLAR O'RTASIDA TARQALISH
KO`RSATKICHI.**



Chizmalı tasvirdan ko'rinib turibdiki, o'rta va qari yoshdagi 40-79 yoshli ayol va erkaklar o'rtasida dastlab aniqlangan qandli diabet hamda irsiyatida qandli diabetga chalingan bemorlarning tarqalish darajasi ifodalangan. Tadqiqot davomida o'rta yoshidagi 40-49 yoshli ayol va erkak tekshiruvchilarda QD ga chalingan bemorlar 10.2% (n=4)ni, GTB 42% (n=8) ni o'z ichiga qamrab olgan. 50-59 yoshli ayol va erkak tekshiruvchilarda QD ga chalingan bemorlar 15,4% (n=6) ni, GTB 47,3% (n=9) ni qamrab olgan. Qari yoshidagi 60-69 yoshli ayol va erkak tekshiruvchilarda QD ga chalingan bemorlar 53,4% (n=21)ni, GTB 10,5% (n=2) ni o'z ichiga qamrab olgan. Keksa yoshidagi 70-79 yoshli ayol va erkak tekshiruvchilarda QD ga chalingan bemorlar 20,5% (n=8)ni, qamrab olgan. Ifodalangan tasvirdan ko'rinib turibdiki, yosh oshgan sari qandli diabetga chalingan hamda GTB bor tekshiruvchilarda dinamik o'sish 50-59 yoshlardan boshlanib, pik cho'qqi 60-69 yoshlarga yetgan. Keksa yoshidagi 70-79 yoshli ayol va erkaklarda QD ga chalinganlar hamda GTB bor bo'lgan bemorlar soni kamayib borgan.

Jadval 3.1.3.

**ORTIQCHA TANA VAZNI VA SEMIZLIKNING QANDLI DIABETDA
UCHRASH KO`RSATKICHI**

Jins	Yosh	Norma		OTV		Semizlik		Jami
		n	%	n	%	N	%	N
ayollar	40-49 yosh	-	-	-	-	1	100	1
	50-59 yosh	-	-	1	33,3	2	66,7	3
	60-69 yosh	3	23	5	38,5	5	38,5	13
	70-79 yosh	1	25	-	-	3	75	4
Jami ayollar		4	19	6	28.	11	52.4	21
Erkak	40-49 yosh	-	-	1	33,3	2	66,7	3

	50-59 yosh	-	-	-	-	3	100	3
	60-69 yosh	-	-	5	62,5	3	37,5	8
	70-79 yosh	1	25	1	25	2	50	4
Jami erkaklar		1	5.5	7	38.9	10	55.6	18

Keyingi bosqichda biz tekshiruvchilarni o'zaro guruhlariga bo'ldik. Yosh va jinsga nisbatan olingan guruhlarni uchga ajratdik. Normal tana vazn, ortiqcha tana vazn va semizlik bor taxlil qilinuvchilarda qandli diabetning tarqalish darajasini o'rgandik.

Taxlil qilingan natijalarni quyidagicha baxoladik. Bunga ko'ra o'rta yoshdagi 40-49 yoshli ayollarda semizlik bo'lgan tekshiruvchlarning 100% (n=1)da qandli diabet borligi aniqlandi.

O'rta yoshdagi 50-59 yoshli ayollarda OTV b'lgan tekshiruvchilarda 33,3% (n=1), semizlik bor taxlil qilinuvchilarda esa 66,7% (n=2) ni tashkil qildi.

Qari yoshdagi 60-69 yoshli ayollarda normal tana vazndagilar 23% (n=3), OTV b'lgan tekshiruvchilarda 38,5% (n=5), semizlik bor taxlil qilinuvchilarda esa 38,5% (n=5) ni tashkil qildi.

Keksa yoshagi 70-79 yoshli ayollarda normal tana vazndagilar 25% (n=1) ni va semizlik bor taxlil qilinuvchilarda esa 75% (n=3) ni o'z ichiga qamrab oldi. Barcha tekshirilgan ayollarda qandi diabetga chalinganlar soni n=21 ni tashkil etdi.

Ikkinchi katta guruhimizda o'rta yoshdagi 40-49 yoshli erkaklarda OTV b'lgan tekshiruvchilarda 33,3% (n=1), semizlik bor taxlil qilinuvchilarda esa 66,7% (n=2) ni tashkil qildi.

O'rta yoshdagi 50-59 yoshli erkaklarda semizlik bor taxlil qilinuvchilarda esa 100% (n=3) ni tashkil qildi.

Qari yoshdagi 60-69 yoshli erkaklarda OTV b'lgan tekshiruvchilarda 62,5% (n=5), semizlik bor taxlil qilinuvchilarda esa 37,5% (n=3) ni tashkil qildi.

Keksa yoshdagi 70-79 yoshli erkaklarda normal tana vaznga ega bo'lgan taxlil qilinuvchilarda 25% (n=1) OTV b'lgan tekshiruvchilarda 25% (n=1), semizlik bor taxlil qilinuvchilarda esa 50% (n=2) ni tashkil qildi. Biz bu guruhda normal tana vazn, OTV va semizlik bor bo'lgan jami tekshiruvchilarning n=18 kishida qandli diabeti borligi aniqlandi.

Jadval 3.1.4.

**ORTIQCHA TANA VAZNI VA SEMIZLIKNING GTBda UCHRASH
KO`RSATKICHI.**

Jins	Yosh	Norma		OTV		Semizlik		Jami	
		n	%	n	%	N	%	N	%
ayollar	40-49 yosh	-	-	2	66,7	1	33.3	3	
	50-59 yosh	-	-	2	40	3	60	5	
	60-69 yosh	-	-	-	-	-	-	-	
	70-79 yosh	-	-	-	-	-	-	-	
Jami ayollar		-	-	4	50	4	50	8	
Erkak	40-49 yosh	-	-	2	40	3	60	5	
	50-59 yosh	1	25	1	25	2	50	4	
	60-69 yosh	-	-	1	50	1	50	2	
	70-79 yosh	-	-	-	-	-	-	-	
Jami erkaklar		1	9.1	4	36.4	6	54.5	11	

Biz keyingi boqichda barcha tekshiriluvchi o'rta, qari va keksa yoshdagi ayol va erkaklarda glyukozaga tolerantlikning buzilishini aniqlash maqsadida glikemik egrilik fazalarini tekshirdik. Bundan maqsad GTB bor bemorlarda qandli diabetga chalinish ehtimolini o'rgandik.

O'rta yoshdagi 40-49 yoshli ayollarda OTV bor tekshiruvchilarda 66,7% (n=2) ni, semizlik bor bo'lganlarda 33,3% (n=1) ni tashil etdi.

O'rta yoshdagi 50-59 yoshli ayollarda OTV bor tekshiruvchilarda 40% (n=2) ni, semizlik bor bo'lganlarda 60% (n=3) ni tashkil etdi. Jami tekshirilgan to'rt guruhdagi ayollarning n=8 tasida GTB borligi aniqlandi. Bu tekshiruvdan maqsad qandli diabetga chalinish ehtimoli bor bemorlarni oldindan aniqlash va profilaktika ishlarini targ'ibot qilish.

Keyingi guruhga o'rta yoshdagi 40-49 yoshli erkaklarning OTV borlarida 40% (n=2), semizlik bor bo'lganlarida 60% (n=3) ni tashkil etdi.

O'rta yoshdagi 50-59 yoshli erkaklarda normal tana vazndagilar 25% (n=1) ni, OTV borlarida 25% (n=1) ni, semizlik bor bo'lganlarida 50% (n=2) ni tashkil etdi.

Qari yoshdagi 60-69 yoshli erkaklarda OTV borlarida 50% (n=1) ni, semizlik bor bo'lganlarida 50% (n=1) ni tashkil etdi. Jami tekshirilgan erkaklarda GTB aniqlanganlar n=11 kishini tashkil etdi. Keyingi tekshiruvda biz GTB bor bo'lganlarda yuklamali sinama o'tkazib, qandli diabetga chalinish ehtimolini aniqladik.

3.2. Ortiqcha tana vazni va semizlikda glikemik egrilik o'zgarishining xususiyatlarini o'rganish.

Jadval 3.2.1.

ORTIQCHA TANA VAZNI VA SEMIZLIKDA TURLI TOIFADAGI GIPERGLIKEMIYANIG KUZATILISHI.

Glikemiya tofasi	Normal tana vazni		OTV		Semizlik		Jami
	n	%	n	%	n	%	N
Giperglikemiya yo'q n= 72	33	45,8	19	26,4	20	27,8	72
Nahordagi giperglikemiya (6,1-7,0) n=19	1	5,3%	8	42,1	10	52,6	19
2 soatdan so'ng	-	-	5	45,5	6	54,5	11

n= 11						
Jami	34		32		36	

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, biz barcha tekshiriluvchi ayol va erkaklarda qondagi qand miqdori, keyinchalik nahordagi giperglikemiya va 2 soatdan so'ng yuklamali sinama o'tkazildi. Taxlil natijalariga ko'ra quyidagi ko'rsatkichlarni aniqladik.

Bunga binoan barcha normaglikemiyadagi tekshiriluvchilar n=72 kishi bo'lib, normal tana vazndagilar 45,8% (n=33) ni, OTV bo'lganlar 26,4% (n=19) ni, semizlik bor bo'lganlarda 27,8% (n=20) ni tashkil etdi.

Keyingi tekshiruvda biz nahordagi giperglikemiyaning aniqladik va quyidagi natijaga erishdik. Nahordagi giperglikemiya (6,1-7,0) aniqlaganda normal tana vazndagilar 5,3% (n=1) ni, OTV bo'lganlar 42,1% (n=8) ni, semizlik bor bo'lganlarda 52,6% (n=10) ni o'z ichiga oldi.

Keyingi bosqichda barcha tekshiruvchilarda 2 soatdan so'ng yuklamali sinamani o'tkazdik. Taxlil natijalariga ko'ra OTV borlarida 45,5% (n=5) ni , semizlik bor bo'lganlarda 54,5% (n=6) ni o'z ichiga qamrab oldi. Quyidagi xulosaga keldik, ilk bor qandli diabetga chalingan bemorlarni n=11 kishi ekanligini aniqladik va bu bemorlar ustida targ'ibot tashfiqot ishlari yaxshi olib borilmaganligi tufayli qandli diabetga chalinganligini o'rgandik.

Jadval 3.2.2.

OTV VA SEMIZLIKDA DISLIPIDEMIYANING UCHRASHI.

Jins	Yosh	Dislipidemiya yo'q		Dislipidemiya bor		Jami
		n	%	n	%	N
Ayol	40-49 yosh	3	50	3	50	6
	50-59 yosh	2	16,7	10	83,3	12
	60-69 yosh	4	17,4	19	82,6	23
	70-79 yosh	2	40	3	60	5
Jami ayollar		11	24	35	76	46

Erkak	40-49 yosh	3	33,3	6	66,7	9
	50-59 yosh	4	26,7	11	73,3	15
	60-69 yosh	7	41,2	10	58,8	17
	70-79 yosh	1	25	3	75	4
Jami erkaklar		15	33,3	30	66,7	45

Diagramma 3.4.

**O'RTA VA QARI YOSHDAGI AYOLLARDA OTV VA SEMIZLIKDA
DISLIPIDEMIYANING UCHRASHI.**





Diagramma 3.5.

**O'RTA VA QARI YOSHDAGI ERKAKLARDA OTV VA SEMIZLIKDA
DISLIPIDEMIYANING UCHRASHI.**



OTV va semizlikda dislipidemiyaning tarqalish darajasini o'rgandik. Bunga ko'ra ikkita guruhga ajratib, dislipidemiya bor va dislipidemiya yo'q guruhga ajratdik.

